

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 114 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinislo Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromdlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	



MINTAQA IQTISODIYOTIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna

FarDU Buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil kafedrası, katta o'qituvchi

Annotatsiya: Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan global o'zgarishlar natijasida yuzaga kelayotgan tendensiyalar mintaqalarda zaif investitsion faollikning namoyon etishi bilan bir qatorda xalqaro investitsiyalarning taqsimlanishida nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi mintaqalari va hududlarida investitsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda muammolarni hal etishda ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, moliyaviy samaradorlikni baholash hamda iqtisodiy-matematik modellashtrish usullaridan keng foydalanilgan.

Kalit so'zlar: investitsiyalash, investitsion salohiyat, modellashtrish, moliyaviy samaradorlik, investitsion faoliyatni moliyalashtirish, investitsion jozibadorlik, ilg'or samaradorlik.

Abstract: The trends emerging as a result of global changes in the world economy indicate the presence of imbalances in the distribution of international investments, as well as the manifestation of weak investment activity in the regions. In this article, scientific and methodological proposals and practical recommendations for improving the mechanism of financing investment activities in the regions and territories of the Republic of Uzbekistan have been developed, and in solving problems, scientific abstraction, observation, generalization, grouping, comparison, factor analysis, financial efficiency assessment and economic - mathematical modeling methods are widely used.

Key words: investment, investment potential, modeling, financial efficiency, financing of investment activities, investment attractiveness, advanced efficiency.

Аннотация: Тенденции, возникающие в результате глобальных изменений в мировой экономике, свидетельствуют о наличии дисбалансов в распределении международных инвестиций, а также о проявлении слабой инвестиционной активности в регионах. В данной статье разработаны научно-методические предложения и практические рекомендации по совершенствованию механизма финансирования инвестиционной деятельности в регионах и территориях Республики Узбекистан, а также при решении задач научные абстракции, наблюдения, обобщения, группировки, сравнения, факторные. Широко используются методы анализа, оценки финансовой эффективности и экономико-математического моделирования.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный потенциал, моделирование, финансовая эффективность, финансирование инвестиционной деятельности, инвестиционная привлекательность, повышенная эффективность.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan global o'zgarishlar natijasida yuzaga kelayotgan tendensiyalar mintaqalarda zaif investitsion faollikning namoyon etishi bilan bir qatorda xalqaro investitsiyalarning taqsimlanishida nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, "2018-yildagi global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi 13 foizga qisqarib nominal mazmunda ushbu ko'rsatkich 1,3 trln. dollarni tashkil qilgan. Yangi loyihalarga e'lon qilingan investitsiyalar kelgusi taraqqiyotning omili sifatida yil mobaynida 14 foizga qisqargan. 2004-yildan buyon rivojlangan mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarning oqimi 27 foizni tashkil qilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiyalarning hajmida esa o'zgarish tendensiyasiga ega bo'lmasdan 2 foiz yillik o'sish kuzatilgan"¹. BMT (YUNKTAD)ning berayotgan ma'lumotlariga ko'ra "2019-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 1,54 trln dollarga qisqarib, bunday sezilarli o'zgarish jahon iqtisodiyotida 2005-yildan buyon kuzatilmagan. 2020-yilda esa global pandemiya ta'sirida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 40 foizdan ortiqroqqa pasayganligi qayd etildi"².

¹ Qarang: www.unctad.org World Investment Report 2019,

² <https://finance.rambler.ru/realty/44346731-on-sprognozirovala-padenie-pryamyh-inostrannyh-investitsiy-na-40-protsentov>



Hozirda jahonning rivojlanayotgan mamlakatlarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini mintaqaviy darajada takomillashtirish, xususan, ularning yangi moliyalashtirish manbalaridan foydalanish darajasini oshirish, kompaniyalarning investitsion faoliyatini moliyalashtirish amaliyotiga innovatsion usullarni joriy etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mazkur mamlakatlar amaliyotida inflyatsiya darajasining yuqoriligi hamda investitsion muhit jozibadorligining nisbatan pastligi, moliyalashtirish manbalarining barqaror emasligi oqibatida korxona va tashkilotlarning investitsion faoliyatini moliyalashtirish amaliyotiga ta'sir etayotgan salbiy jihatlarini bartaraf etish ilmiy tadqiqotning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bunday sharoitda O'zbekistonda olib borilayotgan faol investitsiya siyosati mamlakat milliy iqtisodiyotini istiqboldagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim moliyaviy omili bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturida: 850,5 trln so'm investitsiyalar, shu jumladan 35,5 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishini nazarda tutuvchi kapital qo'yilmalarni o'zlashtirishning yig'ma prognoz parametrlari, shuningdek, investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish hamda jalb qilish bo'yicha 2020-yilda jami 206 ta yangi ishlab chiqarish quvvatlari va 31 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratildi³.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Investitsion faoliyatni moliyalashtirishning nazariy-ilmiy, uslubiy va amaliy muammolari chet ellik olimlardan R.Stobaugh, R.Stoun, N.Abikayev, V.D.Andrianov, B.C.Bard, S.N.Buzulukov, I.N.Drogobitskiy, S.YE.Shepetova, A.B.Bel'skiy, N.Berzon, Y.I.Vernadskiy, O.V.Tereshenko, V.V.Bocharov, E.I.Krilov, V.M.Vlasova, M.G.Yegorova, D.A.Lavrik, M.M.Prusak, N.M.Sabitova, V.Savelyev, kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi global o'zgarishlar va barcha sohadagi rivojlanish tendensiyalari har bir davlatning o'z iqtisodiy rivojlanishini tashqi iqtisodiy faoliyatsiz, uning rivojlanishini esa faol investitsiya siyosatisiz ta'minlay olmasligini yaxshi bilgan holda o'rta va uzoq muddatga mo'langangan samarali investitsiya siyosatini olib borishga asosiy e'tibor qaratishi zarurligini taqozo etmoqda. Shunga muvofiq ravishda so'nggi yillarda O'zbekistonda ham tashqi iqtisodiy faoliyatga uyg'un tarzda faol investitsiya siyosatini olib borish va uni yanada takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Hududlarda qulay investitsiya muhitini yaratish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni quyidagi 1-rasm orqali ifodalash mumkin.



1-rasm: Hududlarda qulay investitsion muhitni yaratish⁴

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2020 yildagi "O'zbekistonning 2020–2022-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4563-sonli qarori. www.lex.uz

⁴ Haydarov A. Hududlarning investitsion salohiyati va istiqbol yo'nalishlari. // "Moliya" ilmiy jurnali, 2011-yil, 5-6 son, 99-bet.



Yuqoridagi rasmdan ko'rinadiki, hududiy investitsion salohiyatni oshirish bilan birga hududiy investitsion risklarni pasaytirish orqali ularda investitsion jozibadorlikni oshirishga erishish mumkin. Bu maqsadga erishish yo'li orqali hududlarga ichki va tashqi investitsiyalarni kengroq jalb etish mumkin. Shu yo'l orqali investitsion faoliyatni yaxshilash maqsadiga erishish mumkin. Bu, o'z navbatida, hududlarning investitsion muhitini qulaylashtiradi. Yaratilgan qulay investitsiya muhiti iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalar jalb etish hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

1-jadval: O'zbekistonda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi va dinamikasi, mlrd. so'm⁵

Hududlar nomi	Yillar						2020-yilda 2015-yilga nisbatan, barobar
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	
Respublika bo'yicha jami	41670,5	49770,6	60719,2	107333,0	189924,3	210195,1	4,22
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5925,7	3718,9	2235	6046,4	8434,6	7089,8	1,91
Andijon viloyati	1661	1987,3	2236	4056,0	8183,7	9622,6	4,84
Buxoro viloyati	3866,1	5756,7	11008,9	7846,1	9867,0	12183,9	2,12
Jizzax viloyati	1101,1	1247	1436,7	3169,2	7919,3	12545,4	10,06
Qashqadaryo viloyati	5590,5	7048,8	10181,9	15321,1	23525,3	20557,6	2,92
Navoiy viloyati	1685,4	2846,8	2784,5	10059,1	17775,3	15688,4	5,51
Namangan viloyati	1966,4	2566,7	3052	7131,0	12187,0	12007,2	4,68
Samarqand viloyati	2854	3321,4	3307,1	5746,9	9798,6	14656,4	4,41
Surxondaryo viloyati	1633,4	2005,2	2949,1	6111,0	12232,4	10068,2	5,02
Sirdaryo viloyati	1000,2	1240,9	1349,4	2154,6	6129,2	7191,9	5,80
Toshkent viloyati	4055,7	3959,9	4301,8	9351,4	16935,1	21148,6	5,34
Farg'ona viloyati	2133	2404,5	2473,8	4978,4	9164,2	11040,0	4,59
Xorazm viloyati	1343,4	1445,4	1877,1	2980,0	5566,8	5391,8	3,73
Toshkent shahri	6854,6	10221,1	11525,9	21861,5	41497,9	50371,3	4,93

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, milliy iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalar hajmi hududlar bo'yicha taqsimlanganda 2015–2020-yillar davomida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar o'sib borgan va 2020-yilda 2015-yilga nisbatan 4,22 barobarga ko'payganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, respublikamiz hududlariga investitsiyalarni jalb etish hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda. O'z navbatida, mazkur holatni respublikamizning alohida hududlari bo'yicha o'rganadigan bo'lsak, unda 9 ta hududdagi o'sish sur'ati respublika bo'yicha o'rtacha o'sish sur'atidan past bo'lganligini va ular orasida Qoraqalpog'iston Respublikasi (1,91 barobar) eng kichik o'sish sur'ati bilan ajralib turganligini, shuningdek, 5 ta hudud respublika bo'yicha o'rtacha o'sish sur'atidan yuqori ko'rsatkichni qayd etganligini kuzatishimiz mumkin.

Markazlashmagan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari asosan to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya hamda kreditlar (jami investitsiyalar hajmiga nisbatan 31,0 foiz), korxonalarning o'z mablag'lari (20,7 foiz) hisobidan amalga oshirildi. Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan Namu-naviy loyihalar asosida shahar va qishloq joylarda turar joylar qurilishi bo'yicha yirik davlat ahamiyatidagi ijtimoiy investitsiya loyihasi amalga oshirildi⁶.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga asosan keyingi yillardagi davlat dasturida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishida korxonalarning mablag'lari, O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, tijorat banklari krediti liniyalari, xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga 2017–2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlari amalga ko'zda tutilgan. Jumladan, 2018-yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 ta loyiha bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – T.: MA'NAVIYAT, 2019. – B. 83-86.

6 www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2020-yildagi ma'lumotlari asosida.



dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard AQSH dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda⁷.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi umumiy xulosalar shakllantirildi:

1. Investitsiya faoliyatining mazmuniga zamonaviy talqindagi ta'rif ishlab chiqildi va unga ko'ra, investitsiya faoliyati – bu hozirgi zamon talablariga javob beruvchi, yangi ilg'or innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va uni asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlashdir;
2. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda uning moliyalashtirish manbalari muhim o'rin egallaydi. Bunda ulardan samarali foydalanish investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.
3. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlarimiz natijalari ularni umumiy tarzda makro va mikro darajada ta'sir etuvchi omillarga ajratish maqbul ekanligini ko'rsatib berdi.
4. Investitsiya siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, belgilangan maqsadlarga erishish hamda iqtisodiy siyosatning qisqa muddatli va uzoq istiqbol uchun belgilangan vazifalarini bajarishga xizmat qiladi;
5. Bugungi kunda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda O'zbekistonda o'ziga xos tajriba shakllangan. Biroq, undagi mavjud muammolar investitsiya faoliyatining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga yetarli ijobiy ta'sirini ko'rsatish imkonini bermayotir. Shu sababli bu borada, eng avvalo, ilg'or xorij tajribalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida quyidagi taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Iqtisodiyot barqarorligini, jumladan, narx-navo, valyuta-kredit bahosi barqarorligini ta'minlash. Bunda:
 - iqtisodiyotning yetakchi sohalari, tez samara beruvchi tarmoqlarida yuqori qiymatli, ichki iste'mol talabi va tashqi bozor uchun sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilishini;
 - cheklangan va arzon mahalliy xom ashyolarni to'liq qayta ishlash asosida tayyor va raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlashni qo'llab-quvvatlash;
 - iqtisodiyotning tashqi bozordagi narx-navo o'zgarishlariga ta'sirchanligini kamaytirish choralari ishlab chiqish;
2. Inson kapitalidan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish. Bunda:
 - ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimi samaradorligini oshirish;
 - ta'lim-tarbiya, ilm-fanga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish va ularni maqsadli yo'naltirish;
3. Soliq tizimi va ma'murchiligining samaradorligini oshirish va soliq yukini kamaytirish hisobiga aholi va har bir jismoniy shaxsning tadbirkorlik va investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishga bo'lgan intilishini kuchaytirish. Bunda ularning:
 - iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga erkin qatnashuvchi mustaqil va salohiyatli subyekt sifatidagi iqtisodiy faolligini oshirish;
 - davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan holda ijtimoiy fikr va munosabat bildiruvchi subyekt sifatidagi ijtimoiy faolligini oshirish maqsadga muvofiqdir.
4. Iqtisodiyotda innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni keng joriy etish, YAIM tarkibida va iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyotning ulushini keskin oshirib borishga erishish, bu borada ilg'or xorijiy tajribalarga chuqur tayanish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati (References):

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 14-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning 2020–2022-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2015–2019-yillar bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lumotlari.
5. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018–2019-yillardagi ma'lumotlari.
6. "O'zbekiston Respublikasining fan-texnika salohiyati va innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari" 2015–2019-yillardagi statistik byulletenlari.
7. <https://mininnovation.uz/uz> O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi ma'lumotlari.

⁷ www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.